



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

1
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1-son (2024-yil, yanvar)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

55.	NORQULOV Usmon Elomonovich	Texnika ixtisosliklari talabalarini Elektrotexnika fanidan o‘quv jarayonidagi o‘qitish metodikalari	283
56.	RAMAZONOVA Zuxro Yorboyevna	Umumta’lim maktablarida kimyo fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari	288
57.	RAXMATOV Ilhom Ismatovich, RAXMATOVA Shodiya Ilhomovna	Fizika darslarida ekologik tarbiya berish metodikasi	292
58.	RAXMONOV Ikromjon Usmonovich, QURBONOVA Rayhona Shahobiddin qizi, UZAQOV Navruz Choriyor o‘g‘li, NEMATOV Laziz Alisherovich	Improving the coding process of the educational simulator for the foundations of electrical supply	301
59.	SHARIPOV Ilhom Husenovich, TOSHEV Vohidjon Zohid o‘g‘li, TOSHEVA Dilnora Zohid qizi	Kimyo o‘qitish darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanishning samaradorligi (Umum ta’lim maktablari misolida)	308
60.	UBAYDULLAEVA Vazira Patchakhanovna	Development of practical competence of students in Physics with the help of modern pedagogical technologies	313
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
61.	RAHIMOVA Indira Igorevna, KASIMOVA Zilola Olimjon qizi	Sport va paralimpiya sportida sportchi shaxsining shakllanishi	318
SAN’AT			
62.	RAMAZONOVA O‘g‘iloy	Talabalarda maqom san’ati vositasida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish	322
TA’LIM MENEJMENTI			
63.	DONAYEV Sultonmurod Xolboyevich	Davlat va jamoat boshqaruv tizimida ta’lim sifati monitoringi va regional nazorat	326
MA’NAVIYAT VA TARBIYA			
64.	ABDURAXMONOV Firdavs Kozimovich	“Ota obrazi” haqida nazariy tushunchalar va uni shakllantirish mexanizmlari	330
65.	ASQARALIYEVA Muxtasar Azizjon qizi	Yoshlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o‘rni	335
66.	ISABOYEVA Dilyora Zokirjon qizi	Бугунги глобаллашув жараёнида ватан ва ватанпарварлик, миллат ва миллатпарварлик тушунчаларининг аҳамияти	341
67.	KARSHIYEV Jaxongir Abdirayimovich	Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalar ma’naviyatini rivojlantirishning amaldagi holati	347
68.	RAXMONOVA Nigina Aminjonovna	O‘qituvchi qadriyatining fanga integratsiyalashuvi	354

SAN’AT

TALABALARDA MAQOM SAN’ATI VOSITASIDA VATANPARVARLIK TUYG’ULARINI SHAKLLANTIRISH

*Ramazonova O’g’iloy,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Mazkur maqolada talabalarni an’anaviy qo’shiqlarimiz, jumladan maqom san’ati orqali Vatanga muhabbat, sevish, unga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o’zgartirish masalalariga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqom san’ati insoniy fazilatlar, xususiyatlarni shakllantirishga ko’maklashadi.

Kalit so’zlar: maqom, san’at, kuy-qo’shiq, vatanparvarlik, fuqarolik hissiyoti, ijro uslubi, ajdodlar merosi, madaniy meros, mafkuraviy sifat, maqom san’ati.

ФОРМИРОВАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВА МАКОМ

В данной статье представлены мнения по вопросам любви и привязанности к Родине и изменения отношения к ней в положительную сторону. Также искусство маком помогает формировать человеческие качества и особенности.

Ключевые слова: маком, искусство, мелодия, песня, патриотизм, гражданское чувство, исполнительский стиль, наследие предков, культурное наследие, идеологическое качество, искусство маком.

FORMATION OF PATRIOTIC FEELING IN STUDENTS WITH THE HELP OF MAQOM ART

This article presents opinions on the issues of love and attachment to the motherland and changing the attitude towards it in a positive way. Also the art of poppy art helps to form human qualities and characteristics.

Key words: maqom, art, melody, song, patriotism, civic feeling, performance style, ancestral heritage, cultural heritage, ideological quality, maqom art.

Kirish. Ma’naviy hayotimizning ajralmas qismi bo’lmish maqomchilik san’ati o’zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan xalqimiz hayotida alohida muhim o’rin egallaydi. Maqom san’atining gultoji bo’lgan “Shashmaqom” Yunesko tomonidan insoniyatning nomoddiy -madaniy merosi sifatda e’tirof etilgan bir davrda ulug’ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan noyob san’at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan.

Mamlakatimizda maqom san’atini o’rganish va rivojlantirish borasida keyingi yillarda keng ko’lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Chunonchi, o’zbek “Shashmaqomi” nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo’shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo’ldi.

Talabalarimizda yuksak insoniy tuyg’ularni shakllantirish, milliy o’zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’ati imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Shunday ekan, soha taraqqiyotini yangi bosqichga ko’tarish maqsadida chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, o’quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog’i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ’ib etish borasidagi faoliyatni yana-da kengaytirish lozim.

Maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash ishlari chetda qolib kelmoqda. Qayd etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o’zbek maqom san’atini chuqur o’rganish, o’ziga xos ijro maktablari va an’analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish ishlarini olib borish yangi bosqichga olib chiqish zarurligini ko’rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbek xalqi ham boy tarixi, madaniyati va musiqa merosi ham dunyodagi barcha xalqlarning tarixi, urf-odati, madaniyati va san’ati singari muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston sharoitida “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’atini keng targ‘ib etish, uning o‘ziga xos ijro maktablari va an‘analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish hamda xalqaro nufuzini oshirish”[3] barcha sohalar qatorida milliy qadriyatlarning ummoni hisoblanmish madaniyat, san’atga ham muhim o‘ringa ega. Yurtimizda bugungi kunda musiqa san’atining rivoji uchun ko‘pgina islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy ruhda, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash borasida ma’naviy boyliklarning ajralmas qismi bo‘lmish maqom san’ati rivoji uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni keng omma ichida targ‘ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo‘lmog‘i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o‘tishida tabarruk zotlar ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birgalikda, o‘zlarining ijodlari bilan ham namuna bo‘lganlar. Jumladan, Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuxamedov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Domla Halim Ibodov, Usta Olim Komilov, Mamadbuva Sattorov, Jo‘raxon Sultonov, To‘xtasin Jalilov, Safo Mug‘anniy, Hojixon Boltaev, Nurmuhammad Boltaev, Ma‘murjon Uzoqov, Faxriddin Sidiqov, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muxtorjon Murtazoev, Doni Zokirov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliev, Rasulqori Mamadaliev singari ustozlar yaratgan boy musiqiy merosni yana-da boyitish va unda ma’naviy-axloqiy sifatlarni kuchaytiruvchi mazmundagi kuy -qo‘shiqlarni singdirish, boshqacha qilib aytganda ustozdan shogirdga o‘tib kelayotgan asriy an‘analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g‘oyalar bilan boyitish lozim.

Maqom san’ati ko‘pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo‘lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma‘lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo‘lib, bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma’noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o‘zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado-ohanglar, doira usullari, she’riyat bilan xalq ashula yo‘llarining bog‘lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o‘z to‘laqonli ifodasini topgan.

Maqom (arab tilidan olingan bo‘lib — joy makon o‘rin ma’nolarini anglatadi) — musulmon Sharq musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg‘uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqomning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog‘liq boshqa ma’nolarni ham anglata boshladi: lad tuzilmasi, lad tizimi, muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar, shakl, janr, bir qismli yoki turkumli cholg‘u va ashula yo‘llari, musiqiy uslub va boshqa maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishaq al-Kindiy va Forobiy (9—10-asr), Ibn Sino va Ibn Zayla (11-asr), Safiuddin al-Urmaviy (13-asr), Mahmud ash Sheroziy va Abdulqodir Marog‘iy (14-asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (15-asr), Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy (16-asr), Darvishali Changiy (17-asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida tadqiq etilgan.

Safiuddin al-Urmaviy maqom nomlaridagi parda tuzilmalarini ilmiy tasniflab, o‘n ikki maqom tizimini ishlab chiqqan. Ushbu tizim birmuncha takomillashtirilgan holda qariyb 17-asrga qadar qo‘llanib kelingan. O‘n ikki maqom negizida keyinchalik har xil milliy hamda mintaqaviy maqom turlari va turkumlari vujudga keldi. Bular o‘zbek va tojiklarda maqom deyilsa, turkman va uyg‘urlarda muqom, eron xalqlari, ozarbayjon va armanlarda murom yoki dastgoh, turklarda makam, arab xalqlarida maqam shaklida talaffuz qilinadi. Xalqchil, milliy mahalliy an‘analari ta’siri ostida maqomlarning musiqiy va ijroviy xususiyatlari yangi hislatlar bilan boyigan holda umumiy soni, nomlanishi, tartibi hamda tuzilishida muayyan mushtaraklik va tafovutlar mavjud.

Ma’lumki, maqomlarga, xalq kuy va ashulariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarini tarbiyalash mas’uliyatli vazifalardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda maqom san’ati orqali milliy va ma’naviy sifatlarni tarbiyalash borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, o‘zbek milliy maqom san’ati oldiga vazifalari ijro va ijodiy maktablar va an‘analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash, maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish, respublika hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini tashkillashtirish, maqom san’atini radio-televideniye, OAV va Internet orqali chet ellarda keng targ‘ib etish singari vazifalar belgilandi.

Azizjon Nabijonovich Talaboyev o‘zining „Maqom san’ati. Maqom san’atini o‘rganishda va uni yosh ijrochilarga o‘rgatishda etibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar“ nomli maqolasida “Maqom san’ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o‘rganish va yosh ijrochilarga o‘rgatishga doir bo‘lgan masalalar, bu borada foydali maslahatlarni tavsiya qilib, maqom san’atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma’lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitish”[13] ga xizmat qiladi. Shuningdek, maqola maqom san’ati va uning tarixiy ildizari haqida ham fikr-mulohazalarini bayon etgan.

Ruslan Asliddinovich G‘aybullayevning “Maqom san’ati – o‘zbek madaniyati durdonasi” nomli maqolasida maqom tushunchasi, uning vujudga kelish tarixi va shakllanishi haqida fikr-mulohazalarni bayon qilib, o‘tmishda yashab ijod etgan ko‘pgina mutafakkir olimlar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Sayfiddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abduraxmon Jomiyning ijodini tahlil etgan.

Mehrinigor Abdurashidova “Maqom san’ati: o‘tmish va zamon kesimida” nomli maqolasida Sharq musiqasiga xos bo‘lgan turkumli san’at turi ekanligi, musulmon davlatlarida, Sharqida keng tarqalganligi, turli mamlakatlarda har xil nomlanishi, o‘zbek va tojiklarda maqom, uyg‘urlarda muqom, Ozarbayjonda mug‘om, arablarda va turklarda maqam, Eronda dastgoh, hindlarda raga kabi. Maqomlar, ya’ni turkumli musiqa janrining ildizi VII asrlarda yashab o‘tgan Borbad Marvaziya borib taqaladi degan ilmiy farazlar mavjud. U afsonaviy bastakor, mahoratli sozanda va tengsiz hofiz bo‘lgan. Aynan uning ijodida birinchi marta turkumli asarlar, ya’ni, husravoniy turkumi yaratilganli haqida fikr-mulohazalar bayon qilinganligi haqida bayon etilgan.

Hakimov Ziyodullo “Buxoro shashmaqomining tarixiy ildizlari” nomli maqolasida Buxoro Shashmaqomining kelib-chiqishi va shakllanish jarayonlari, Sharq musiqa san’atida maqomlarining o‘rni hamda ularning dastlabki nazariy asoslari haqida asosli fikr yuritilgan. Maqomlarning nazariy asoslarini o‘rganish masalalarida asosan ilmiy iyoqo‘(ritm) nazariyasiga urg‘u beradi.

Mazkur maqolalarni tahlil etar ekanmiz, maqom san’ati talabalarda va yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy iftixor, milliylik, an‘analarga sodiqlik, ruhiy va ma’naviy yuksalishga undaydi. Biroq talabalarda mafkuraviy sifatlarni, immunitetni hosil qilish masalalariga e’tibor berilmagan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va musiqa va san’atni rivojlantirish borasidagi ishlar kun sayin rivojlanayotgan bugungi kunda maqom san’ati va uning taraqqiyotini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Muhokama va natijalar. O‘zbek xalq musiqasi va uning mumtoz namunalarini bo‘lgan maqomlarni ilmiy tadqiq etar ekanmiz, maqomchilikda yorqin iz qoldirgan, yirik maqomchilari, tanbur va dutor sozlarida mohir ijrochilari, shuningdek, fors-tojik tillarini mukammal egallagan, mumtoz she’riyat (aruz) qonun-qoidalarining puxta bilimdonlari va ayni vaqtda o‘tmishga oid arab imlosida bitilgan yozma manbalarni, shu jumladan, musiqiy risolalarni o‘qib, ularni sharhlay oladigan mutaxassislarini tarbiyalash zarurati bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Azaliy milliy qadriyatlarimizni e’zozlashga, o‘zligimizni anglashga qaratilgan ilmiy uslubdagi jo‘shqin musiqalarning klassik uslubidagi namunalarining ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz, unda talabalarni mushohadaga undovchi ayrim o‘zgacha tamoyillar borligini ham ko‘ramiz. Masalan, ustozlar maqomlarning asosan shakl tuzilishi, qonun-qoidalarini ilmiy asoslab bergan, salobatli san’atning ma’nolar tizimi masalasini deyarli qamrab olgan manbalar borligi ma’lum bo‘ldi.

O‘tmishimizdagi sho‘ro mafkurasi to‘siq bo‘lgani maqomlar mazmunida islomiy dunyoqarash va tasavvufona g‘oyalar in’ikosining ochiq-oydin bayon etilishi mushkul ish ekanligini ko‘rsatdi.

Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqom bo‘lib, O‘zbekistonning uch vohasi Buxoroda “Shashmaqom”, Xorazmda “Xorazm maqomlari”, Farg‘ona vodiysida “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari” sifatida aytiladi. Maqom ijrochiligi haqida to‘xtalar ekanmiz, maqomlar maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta, keng diapazonli ovozga ega bo‘lgan sozandalar va xonadalar ijro etishadi. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta’lim asosida o‘zlashtiriladi. Maqomlarni - “sifatsiz ijro etish – deb yozadi maqomdon olim I.Rajabov - maqom yo‘llari haqida noto‘g‘ri tasavvur qoldirishi mumkin”[8,268]. Bu mumtoz musiqa merosimizning asrlar osha o‘z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi.

Maqom san’ati vositasida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish haqida to‘xtalar ekanmiz, aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish, oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, “mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-

tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta‘sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish, tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g‘oyalari xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish, aholining ijtimoiy-ma‘naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalari kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yana-da mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy ma‘naviyatimiz negizida o‘ziga xos vazifani bajarmoqda.

Birinchidan, ta‘lim-tarbiyaning milliy ma‘naviy negizlari maqom san‘ati vositasida yoshlarimizda vatanparvarlik tuy‘ularini shakllantirish, ularni ma‘naviy qadriyatlarimiz negizida tarbiyalovchi o‘ziga xos bir asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, milliy-ma‘naviy qadriyatlarimiz mazmuniga milliy maqom san‘atimiz yordamida ta‘lim-tarbiyaning samaradorligini oshishiga, rivojlanishga ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mulohazalarimizning oxirida yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

– O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiyaning milliy-ma‘naviy negizlari murakkab, o‘ziga xos tushuncha vatanparvarlik tuyg‘ularini asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan ushbu sohada shakllangan tajribalari asnosida yuzaga kelgan va eng asosiysi ushbu tajriba vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘ta olgan.

– O‘zbekiston hududida ta‘lim-tarbiya va milliy ma‘naviyat bo‘yicha ajdodlarimiz bizga ulkan meros qoldirishgan. Ana shu tajribadan to‘g‘ri foydalanish va shu bilan birga, ta‘lim va tarbiyada inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yishimiz lozim.

– Bugungi kunda ta‘lim va tarbiya tizimini to‘xtovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo‘nalishda umumbashariy tamoyillarga murojat qilishimiz, xorijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 -yil 30- aprel
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonuni, 2020- yil 23- sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 30 -avgustdagi PQ-289 sonli “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3- maydagi PQ-4307-sonli “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. Jabborov A.. O‘zbek musiqa tarixi. T-2018
6. Fitrat A.. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., Fan, 1993, b. 39-40
7. Odilo A.v. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. T-1995]
8. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”. T.: 1963 y, 268 b.
9. Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskusstvoznaniya Inv. N879 s. 23-29.
10. Begmatov S. “ Hofizlik san‘ati yo‘llari“ T., 2007.
11. Ibrohimov O. “ Farg‘ona- Toshkent maqom yo‘llari“ T., 2006.
12. Yunus Rajabiy “ Maqomlar masalalari doir “ T., 2006.
13. Talaboyev A.N. Maqom san‘ati. maqom san‘atini o‘rganishda va uni yosh ijrochilarga o‘rgatishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar // Oriental Art and Culture. 2021. №4.